



SHO‘RO DAVRI LUG‘ATCHILIGINING ASOSIY YO‘NALISHLARI

Sog‘inboyeva Shahzoda

Namangan davlat universiteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek lug‘atchiligining qadimgi davrlardan to hozirgi zamongacha bo‘lgan rivojlanish bosqichlari, ayniqsa, ikki tilli tarjima lug‘atlarining shakllanishi va ularning tilshunoslik hamda madaniy merosni saqlashdagi o‘rni tahlil qilinadi. Lug‘atlar jamiyatning ilmiy va madaniy taraqqiyot darajasini aks ettiruvchi manba sifatida, o‘quv va ijtimoiy maqsadlarga xizmat qilgan. Tadqiqotda Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asari ilk ikki tilli lug‘at sifatida alohida o‘rin tutishi, shuningdek, XIX–XX asrlarda tuzilgan rus–o‘zbek va o‘zbek–rus lug‘atlarining yaratilish sabablari, tuzilishi va leksikografik ahamiyati tahlil etilgan. Shuningdek, O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Til va adabiyot instituti tomonidan yaratilgan besh jildli va ikki jildli “Ruscha–o‘zbekcha lug‘at”larning o‘zbek lug‘atchiligi taraqqiyotidagi o‘rni yoritilgan.

Kalit so‘zlar: O‘zbek lug‘atchiligi, ikki tilli lug‘atlar, Devonu lug‘otit turk, ruscha–o‘zbekcha lug‘at, leksikografiya, tarjima, tarixiy taraqqiyot, Mahmud Koshg‘ariy, sovet davri lug‘atchiligi, zamonaviy leksikografiya.

MAIN DIRECTIONS OF LEXICOGRAPHY DURING THE SOVIET PERIOD

Sog‘inboyeva Shahzoda

Student of Namangan State University

Abstract: This article analyzes the stages of development of Uzbek lexicography from ancient times to the present, with a particular focus on the formation of bilingual translation dictionaries and their role in linguistics and the preservation of cultural heritage. Dictionaries, as sources reflecting the scientific and cultural achievements of a society, have served educational and social purposes. The study highlights the significance of Mahmud al-Kashgari’s “Devonu lug‘otit turk” as the first bilingual dictionary, as well as the structure, purpose, and lexicographic value of Uzbek–Russian and Russian–Uzbek dictionaries compiled during the 19th–20th centuries. In addition, it discusses the importance of the five-volume and two-volume “Russian–Uzbek Dictionary” compiled by the Institute of Language and Literature of the Academy of Sciences of Uzbekistan in the development of Uzbek lexicography.





Keywords: Uzbek lexicography, bilingual dictionaries, Devonu lug‘otit turk, Russian–Uzbek dictionary, lexicography, translation, historical development, Mahmud al-Kashgari, Soviet lexicography, modern lexicography.

Lug‘atlar ma‘naviy madaniyat sohasida muhim o‘rin egallaydi, ularda jamiyatning ma‘lum davrda erishgan bilimlari aks etadi. Lug‘atlar bir qator ijtimoiy vazifalarni bajaradi: o‘quvchiga muayyan hodisa haqida ma‘lumot beradi; uni o‘z va o‘zga tillardagi so‘zlar bilan tanishtiradi; tilni, uning lug‘at tarkibini takomillashtirish va tartibga solishga yordam beradi. Lug‘atlar juda qadimgi davrlarda paydo bo‘lgan. Ensiklopedik lug‘atlardan farqli ravishda, hozirgi kunda keng tarqalgan lingvistik (filologik) lug‘atlarning asosiy maqsadi til birligi hisoblangan so‘zning ma‘nolarini, turli lisoniy xususiyatlarini ochib berishdan iborat. Lingvistik lug‘atlar leksikografik tavsif mazmuni, vazifasi va usullari nuqtayi nazaridan bir qancha turlarga bo‘linadi.

¹Lingvistik lug‘at turlaridan biri – bir tilga oid lug‘aviy birliklarni boshqa tilga o‘girib beruvchi tarjima lug‘atlari – o‘zbek leksikografiyasida keng tarqalgan, qadimdan rivojlanib kelayotgan lug‘at turidir. Aytish mumkinki, o‘zbek lug‘atchiligi tarixi, to o‘zbek tilining izohli lug‘ati tuzilgunga qadar, asosan ikki tilli lug‘atlar tarixidan iborat bo‘lgan. O‘zbek lug‘atchiligi tarixi, shuningdek, boshqa turkiyzabon xalqlar leksikografiyasi ham mashhur alloma Mahmud Koshg‘ariyning «Devonu lug‘otit turk» asaridan boshlangan, deb aytish mumkin. Ushbu lug‘at, asosan, so‘zlar va ularning ma‘nolarini tavsiflab qolmasdan, turkiy xalqlar tarixi, urf-odatlarini, geografik joylashuvi kabi keng ma‘lumotlar manbai ham hisoblanadi. Shu bilan birga, u turkiy xalqlar lug‘atchiligidagi dastlabki ikki tilli (turkiycha-arabcha) lug‘atlardandir.²

XIX asrning so‘nggi choragigacha turkiy (o‘zbek)-arab, turkiy (o‘zbek)-fors, o‘zbek-turk ikkitilliligi asoslanib yoki aksincha tartibda tuzilgan tarjima lug‘atlari mavjud bo‘lgan bo‘lsa, XIX asr oxiri va XX asrda ular qatoriga rus, ingliz, nemis, fransuz, ispan, hind, xitoy, yapon, koreys tillari ishtirokida tuzilgan ikki tilli lug‘atlar ham qo‘shildi. O‘zbek lug‘atchiligi tarixida yaratilgan yuqoridagi kabi ikki tilli lug‘atlar ichida rus-o‘zbek yoki o‘zbek-rus ikkitilliligi asoslanib yaratilgan tarjima lug‘atlari ko‘pchilikni tashkil etadi. Ularni shartli ravishda uch guruhga bo‘lish mumkin:

1. Chor (podshoh) Rossiyasi davrida tuzilgan ruscha-o‘zbekcha, o‘zbekcha-ruscha lug‘atlar.

¹ Умаров З.А. Грамматика староузбекского языка «Мабани ул-луғат» Мира Мухамедхана. Автореф. канд. дисс. – Ташкент, 1967.

² Мадвалиев А. Ўзбек лексикографияси тарихидан// Ўзбек тили ва адабиёти, 2008.





2. Shoʻrolar davrida yaratilgan ruscha-oʻzbekcha tarjima lugʻatlari.

3. Oʻzbekiston mustaqilligi yillarida yaratilgan ruscha-oʻzbekcha lugʻatlar.

XIX asrning soʻnggi choragi va XX asrning dastlabki yigirma yili mobaynida, yaʼni Turkiston chor Rossiyasi mustamlakasiga aylantirilgan yillarda turli sabab va ehtiyojlar, davr taqozosi bilan oʻzbek-rus, rus-oʻzbek ikkitilliligi asosida oʻnlab ruscha-oʻzbekcha va oʻzbekcha-ruscha lugʻatlar, soʻzlashgichlar tuzilib nashr etildi (bu davrdagi lugʻatlarda koʻpincha «oʻzbek» soʻzi oʻrnida «sart» soʻzi, «oʻzbek tili» iborasi oʻrnida «sart tili» iborasi ishlatilgan edi).

Havolada koʻrsatib oʻtilgan lugʻat va soʻzlashgichlar, asosan, tuzuvchilarning mahalliy aholi bilan bevosita aloqasi jarayonida, jonli soʻzlashuv va talaffuzga asoslanib tuzilgan va chor amaldorlarining oʻz hokimiyatini, mustamlakachilik siyosatini yanada mustahkamlash, mahalliy aholini tobelikda saqlab turish kabi tor amaliyotchilik maqsadlarini amalga oshirish uchun moʻl-jallangan edi.³ Masalan, dastlabki ruscha-oʻzbekcha soʻzlashgichni yaratgan Z.Alekseyev oʻz kitobi sarlavhasini quyidagicha belgilagan: «Turkiston oʻlkasida yashovchi har qanday kishi (bu oʻrinda – rus kishisi) uchun sartlar bilan muloqotda zarur boʻladigan sart tili iboralari. Xoʻjayinlar va boyvuchcha xonimlar, savdogarlar va zamindorlar uchun... foydali qoʻllanma». Mazkur lugʻat va soʻzlashgichlarning aksar hollarda chor ofitserlari, missionerlar tomonidan tuzilganligi ham fikrimizni maʼlum darajada tasdiqlaydi. Lekin oʻz maqsad va vazifalariga, ogʻzaki til va talaffuz asosida tuzilganligi va hozirgi kun nuqtayi na-zaridan oʻta soddaligiga qaramay, ushbu davrda tuzilgan lugʻat va soʻzlashgichlar keyingi, zamonaviy ruscha-oʻzbekcha lugʻatlar va soʻzlashgichlar tuzish uchun muayyan zamin yaratib berdi.⁴ Bu jihatdan V.Nalivkin va M.Nalivkinalarning, S. Lapinning bir necha martalab nashr etilgan ruscha-oʻzbekcha lugʻatlari diqqatga sazovordir. Shoʻro davri rus-oʻzbek lugʻatchiligi katta davrni – XX asrning 20-yillaridan to 90-yillarigacha boʻlgan davrni qamrab oladi. Bu yillar mobaynida turli maqsadlarni koʻzlagan kichik hajmli ruscha-oʻzbekcha lugʻatlar bilan birga, katta hajmli, fundamental xarakterdagi akademik ruscha-oʻzbekcha lugʻatlar ham yaratildi. Ayni shu nuqtayi nazardan ushbu davr lugʻatlarini shartli ravishda ikki guruhga ajratish mumkin:

a) 1920-1950 yillar ichida yaratilgan ruscha-oʻzbekcha tarjima lugʻatlari;

³ Акмалова М. Лексикографические труды в собрании института востоковедения АН УЗ // Адабий мерос, 3 (57), 1991.

⁴ Умаров З.А. Грамматика староузбекского языка «Мабани ул-луғат» Мира Мухамедхана. Автореф. канд. дисс. – Ташкент, 1967.



b) 1950-1990 yillar ichida yaratilgan ruscha-o'zbekcha tarjima lug'atlari.

1920-1950 yillar mobaynida tuzilgan ruscha-o'zbekcha lug'atlar, so'zlashgichlar kichik hajmliligi, qisqaligi, nisbatan soddaligi, illyustrativ materiallarining kamligi bilan ajralib turadi. Bular ichida E.D.Polivanovning «Qisqacha rus-o'zbek lug'at»i, Ashurali Zohiriy nashr ettirgan «Ruscha-o'zbekcha mukam-mal lug'at», T.N.Qoriniyoziy va N.K.Borovkovlar tahriri ostida nashr etilgan «Ruscha-o'zbekcha lug'at» o'z zamonasi talablariga javob bera oladigan, bir qadar mukammal lug'atlar hisoblanadi.⁵

Ikkinchi jahon urushi munosabati bilan anchagina sustlashib qolgan lug'atchilik ishlari 1950-yillardan yana jonlanib, qisqa vaqt ichida bu sohada ulkan ishlar amalga oshirildi, katta hajmli ruscha-o'zbekcha tarjima lug'atlari yaratildi. Bular: O'Zfa Til va adabiyot institutining yetakchi xodimlari tomonidan yaratilgan besh jildli «Ruscha-o'zbekcha lug'at» hamda shu institut xodimlari ishtirokida yaratilgan bir jildli «Ruscha-o'zbekcha lug'at»dir. Ushbu lug'atlar hajm jihatidan o'zigacha yaratilgan barcha ruscha-o'zbekcha lug'atlardan ustun turadi. Masalan, besh jildli lug'at dan 71500 dan ortiq so'z o'rin olgan bo'lsa, bir jildli lug'at 50000 so'zni qamrab olgan. O'zbek lug'atchiligining muayyan bosqichida keng qamrovli vazifalar yuklangan bir jildli va besh jildli ruscha-o'zbekcha lug'atlarning nashr etilishi qonuniy va muhim bir hol hisoblanadi.⁶ Bu lug'atlar O'zbekistonda rus tilini o'rganishda, tarjimalarning sifatini oshirishda katta rol o'ynadi va qariyb o'ttiz yil mobaynida shu maqsadlar uchun xizmat qilib keldi. Shu bilan birga, ushbu lug'atlar o'zbek lug'atchiligini yangi, yuqori pog'onaga ko'tardi. Keyingi o'n yilliklarda o'zbek kitobxonlarining rus tili sohasidagi bilimi yanada oshdi, rus va o'zbek tillari lug'at tarkibida sezilarli o'zgarishlar ro'y berdi. Leksikadagi o'zgarishlarni aks ettirish zarurati tufayli, tarjimonlar uchun amaliy, rus tilini o'rganuvchilar uchun yordamchi qo'llanma bo'la oladigan yangi, mukammal ruscha-o'zbekcha lug'atga ehtiyoj sezila boshladi. Natijada 1983-1984-yillarda yangi, avvalgilariga qaraganda ancha mukammal ikki jildli «Ruscha-o'zbekcha lug'at» maydonga keldi. Ushbu yangi lug'atni tuzishda besh jildli va bir jildli ruscha-o'zbekcha lug'atlar tuzish jarayonida to'plangan boy tajribadan sa-marali foydalanilgan. Ammo bu ikki jildli lug'at avvalgi besh jildli yoki bir jildli lug'atning qayta nashri bo'lmay,

⁵ Акмалова М. Лексикографические труды в собрании института востоковедения АН УЗ // Адабий мерос, 3 (57), 1991.

⁶Русско-узбекский словарь / Ruscha-o'zbekcha to'la so'zlik. II jild. P - YA (Tuzuvchilar: Saxi Rahmatiy, Abdulla Qodiriy va Abdulla Saidov). - Toshkent - Qozon, 1934. -548 b. (Lug'atning birinchi jildi noma'lum sabablarga ko'ra nashr etilmay qolgan);





balki o'z vazifasi, tuzilishi, tarkibi (unda 67 000 ga yaqin so'z berilgan), manbalariga ko'ra ilgari lug'atlardan katta farq qiladi.

Lug'atlar jamiyatning madaniy va ilmiy hayotida muhim o'rin tutib, xalqning tili, tafakkuri va tarixini aks ettiradi. O'zbek lug'atchiligi taraqqiyoti tilni saqlash, boyitish va zamon talablariga moslashtirish yo'lida uzluksiz davom etgan jarayondir. Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asaridan tortib, zamonaviy ikki tilli lug'atlarga qadar yaratilgan har bir asar o'zbek tilshunosligi taraqqiyotiga katta hissa qo'shgan. Ayniqsa, XX asrda yaratilgan yirik hajmli ruscha-o'zbekcha lug'atlar zamonaviy o'zbek tilshunosligi, tarjima amaliyoti va ta'lim tizimi uchun mustahkam ilmiy asos bo'lib xizmat qildi. Bugungi kunda bu lug'atlar til o'rganish, tadqiqot va madaniy muloqot sohalarida muhim manba sifatida ahamiyatini saqlab qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Самойлович А.Н. Персидский турколог XVIII в Мехдихан // Известия общества обследования и изучения Азербайджана. – Баку, 1927.
2. Умаров З.А. Грамматика староузбекского языка «Мабани ул-луғат» Мира Мухамедхана. Автореф. канд. дисс. – Ташкент, 1967.
3. Акмалова М. Лексикографические труды в собрании института востоковедения АН УЗ // Адабий мерос, 3 (57), 1991.
4. Хусанов Н. Бир ноёб луғат ва унинг муаллифи // Фан ва турмуш, 1982.
5. Мадвалиев А. Ўзбек лексикографияси тарихидан// Ўзбек тили ва адабиёти, 2008.
6. Русско-узбекский словарь / Ruscha-o'zbekcha to'la so'zlik. II jild. P - YA (Tuzuvchilar: Saxi Rahmatiy, Abdulla Qodiriy va Abdulla Saidov). - Toshkent - Qozon, 1934. -548 b. (Lug'atning birinchi jildi noma'lum sabablarga ko'ra nashr etilmay qolgan);
7. Русско-узбекский разговорник/ Ruscha-o'zbekcha so'zlashgich (Составители: З. М. Маъруфов, Г. Н. Михайлов). - Ташкент, 1969. - 80 с. (Izd. 2. - Tashkent, 1987. - 184 s)
8. Наливкин В., Наливкина М. Русскосартовский и сартовско-русский словарь общеупотребительных слов с приложением краткой грамматики по наречиям Наманган-ского уезда. - Казань, 1884. 480 с.
9. Брилев Н. Г. Ўзбекско-русский словарь. Кучебнику Шакирджана Рахими «Катталар йўлдаши» //Shokirjon Rahimiyning «Kattalarga o'qish darsligi» uchun: Ruscha-o'zbekcha lug'at. - Moskva, 1925. - 64 s.